

## Maktabgacha Ta'lim Tashkiloti Direktori Boshqaruvchanlik Faoliyatining Pedagogik Asoslari

**Yuldosheva Dilorom Azodboyevna**

Xorazm viloyati Shovot tumani, 5- son DMTT direktori

**Salayeva Muxabbat Saburovna**

Urganch davlat universiteti, p.f.d., prof

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada maktabgacha ta'lim tashkiloti direktori boshqaruvchanlik faoliyatining pedagogik asoslari haqida fikrlar bayon qilingan.

**Kalit so'zlar:** MTT direktori, boshqaruv, uzluksiz, kadr, sifat, predmet, metod, qonuniyatlar, tamoyillar.

Jahon miqyosidagi murakkab jarayonlarni va mamlakatimiz bosib o'tgan taraqqiyot natijalarini chuqur tahlil qilgan holda davlatimiz direktori tomonidan "Harakatlar strategiyasidan – taraqqiyot strategiyasi sari" tamoyiliga asosan ishlab chiqilgan yetti ustuvor yo'nalishdan iborat 2022 – 2026 – yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi qabul qilinganligi muhim qadamlardan biri bo'lib, ushbu qaror barcha sohalardagi rivojlanish va vazifalarni belgilab berdi.

O'zbekiston Respublikasining mustaqilligi sharoitida demokratik va huquqiy jamiyatni barpo etish yo'lida amalga oshirilayotgan ijtimoiy harakat mustaqil fikrlash layoqatiga ega, aqliy, ma'naviy–axloqiy va jismoniy jihatdan yetuk barkamol avlodni tarbiyalash zaruriyatini kun tartibiga olib chiqdi. Zero, sog'lom avlod va uning ijtimoiy faolligi milliy hamda umuminsoniy qadriyatlar ustuvorligi ta'minlangan huquqiy jamiyatni barpo etish imkoniyatini beradi.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar, ta'lim muassasalari faoliyatini takomillashtirishga yo'naltirilgan davlat dasturlari, hukumat qarorlari, ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilariga qaratilayotgan e'tibor, ular uchun yaratilayotgan qulay shart-sharoitlar, maktabgacha ta'lim tashkilotlari (MTT)da nafaqat ta'lim-tarbiya jarayonini ilmiy asosda tashkil etish, balki mazkur tizimdagi boshqaruv muammolarining ijobiy echimini topish, MTT direktorlarining boshqaruv faoliyatini takomillashtirishni, ya'ni boshqaruvning ma'muriy buyruqbozlik metodlaridan voz kechib, bugungi kun talablariga mos keladigan, demokratik tamoyillarga va innovatsion yondashuvlarga asoslangan boshqaruv tizimini shakllantirishni taqozo etmoqda.

Davlatimiz direktori Shavkat Mirziyoyev 2024-yil 5-fevral kuni o'tkazilgan videoselektor davomida Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi hamda maktabgacha va maktab ta'limidagi ishlarni tanqid qildi. Davlat direktorining matbuot kotibi Sherzod Asadov bu haqda quyidagilarni ma'lum qildi:

Prezident maktabgacha va maktab ta'limidagi ishlar ahvolini tahlil qilib, kelgusi rejalarni belgilab berdi. 2024 yilda davlat bog'chalari quvvati yana 10 ming o'ringa, xususiy bog'chalarda 50 ming o'ringa oshiriladi.

Prezident Maktabgacha ta'lim agentligiga bog'chalarda byudjet mablag'laridan samarali foydalanish bo'yicha tizim yaratish topshirig'ini berdi.

Shuningdek, bog'cha mudiraligiga nomzodlarni saralash, ularni lavozimga tayinlash tizimini ishlab chiqish; barcha bog'chalarda ovqat, davomat, badal puli kabi barcha jarayonlarni to'liq raqamlashtirish; 250 ta davlat bog'chasida ta'lim va tarbiya sifatini xalqaro standartlar asosida baholash tizimini joriy qilish topshirildi.

Bog'chalarni milliy qadriyatlarga mos yagona standartlar asosida o'quv-metodik materiallar bilan ta'minlash zarurligi ta'kidlandi.[3.]

“Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risidagi” Qonunining 51 - moddasida direktor davlat maktabgacha ta'lim tashkilotining direktori ekanligi, u davlat maktabgacha ta'lim tashkilotining faoliyatiga joriy direktorlikni amalga oshirishi, direktorning huquq va majburiyatlari, normativ-huquqiy hujjatlar, davlat maktabgacha ta'lim tashkilotining ustavi, shuningdek mehnat shartnomasida belgilab qo'yilganligi ham boshqaruvchilik faoliyatiga e'tibor va talabning davlat siyosati darajasida ekanligidan dalolat beradi.[2.]

Zamonaviy ta'lim tizimi maktabgacha ta'lim tashkiloti direktoriga tobora ko'proq talablarni qo'yimoqda, lekin boshqaruvdek muhim sohada direktorning mahorati eng kuchli talab hisoblanadi. Ta'lim darajasini oshirish asosan ta'lim tashkiloti direktorining ta'lim sifatini rivojlantirishdan manfaatdorligi, vaziyatning o'ziga xos xususiyatlarini his etishi va kerakli vaqtda boshqaruv faoliyatiga o'zgartirish kiritishi bilan bog'liq.

Ta'lim tashkilotining yuqori samaradorlik ko'rsatkichlariga yo'naltirilganligi boshqaruvning tegishli darajasiga qo'yiluvchi bir qator talablarni ifodalaydi. Maktabgacha ta'lim tizimini boshqarishda yangi yondashuvlarga asoslanib, zamonaviy direktor layoqatli mutaxassis fazilatlariga ega bo'lishi bilan birga, yuqori professional muloqot madaniyati va axloqiy-etik me'yorlarga ega bo'lishi kerak. Boshqaruvchanlik faoliyati pedagog-psixologlar tomonidan turli davrlarda o'ziga xos tarzda talqin qilingan.

Bugungi kunda maktabgacha ta'lim tizimida turli xil maktabgacha ta'lim tashkilotlari mavjud bo'lib, ularda takomillashtirilgan pedagogik texnologiyalar va usullar amalda qo'llanilmoqda, innovatsion faoliyat ommalashmoqda. Asosan maktabgacha ta'limning yo'nalish va talablari o'zgartirilmoqda. Aynan shuning uchun ta'lim muammolarini zamonaviy darajada hal eta oluvchi yangi avlod direktori zarur. Yangi turdagi direktor jamoa bilan ishlashda tabaqalashtirilgan yondashuvni amalga oshirishi, ularning qobiliyatlari, shuningdek ehtiyojlari va kasbiy talablarini hisobga olishi kerak. Direktor uchun xodimlarning tashabbusini ma'qullash, ularning ijodiy salohiyatini rivojlantirishga hissa qo'shish, shuningdek, har bir xodimini harakatga unday olishi muhimdir.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktorlarining boshqaruv faoliyati va ularga qo'yilayotgan talablarni o'rganish jarayonida MTT direktorlari boshqaruv faoliyati yo'nalishlarida belgilanayotgan talablar MTTda faoliyat ko'rsatayotgan qaysi bo'g'in direktorlariga tegishli ekanligini hamda mazkur yo'nalishlarda tashkil etiladigan boshqaruv faoliyati jarayonida kimlar va qaysi lavozim egalari ishtirok etishi va ularning asosiy vazifalari nimadan iborat ekanligini aniqlash zaruriyati vujudga keldi va bu o'z navbatida MTT direktorlari va pedagogik xodimlarning funksional vazifalarini ko'rib chiqishni taqazo etadi.

Tadqiqotlar jarayonida aniqlanishicha, MTT direktorlarining ko'pchiligi MTT faoliyatini tashkil etish va boshqarishda direktorning asosiy vazifalari ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish va nazorat qilish, pedagog va tarbiyalanuvchilarga zaruriy shart-sharoitlarni yaratib berishdan iborat deb hisoblaydilar.

Bizning fikrimizcha, MTT faoliyatini tashkil etish va boshqarish jarayonida direktorlar tomonidan o'ziga xos ahamiyat kasb etuvchi quyidagi vazifalarni bajarilishi zarur:

- belgilangan maqsadga erishish uchun vazifalar belgilash va belgilangan vazifalarni bajarish yo'nalishida tashkil etiladigan faoliyatni oldindan rejalashtirish, amalga oshirish yo'l-yo'riqlarini tanlash, qaror qabul qilish;

- vazifalarning mazmun va mohiyatiga ko‘ra mutaxassislarni tanlash va bajariladigan vazifalarni taqsimlash;
- ta‘lim-tarbiya jarayonini ilmiy asosda tashkil etish va pedagogik xodimlarning malakasini oshirish va qayta tayyorlash ishlarini tashkil etish;
- moddiy-texnik va zamonaviy ilmiy-metodik mahsulotlar bilan ta‘minlash;
- ta‘lim muassasasi va sotsium munosabatlarida uzluksiz aloqani ta‘minlash;
- MTT faoliyatida ilg‘or pedagogik tajribalar va zamonaviy axborotlar texnologiyalaridan foydalanilishini ta‘minlash;
- davlat talablarini amaliyotda qo‘llash va uning monitoringini olib borishni tashkil etish;
- MTTning rivojlanish moyilligi va dinamikasini aniqlash uchun pedagogik xodimlar va tarbiyalanuvchilarning ota-onalari o‘rtasida anketa so‘rovlari va suhbat o‘tkazish asosida ahborotlar to‘plash va tahlil qilish;
- MTT faoliyatini rivojlantirish va takomillashtirish yo‘nalishida belgilangan vazifalarni qayta ko‘rib chiqish, yangilash, lavozimlar bo‘yicha davlat talablari asosida kadrlar tanlash va joy-joyiga qo‘yish;
- pedagoglarning innovatsion faoliyat natijalariga qiziqishini shakllantirish va rag‘batlantirish asosida innovatsion faoliyatni tashkil etish; qabul qilingan qaror va buyruqlarning bajarilishini nazorat qilish va h.k.

Demak, MTT direktorlari vazifalarini amalga oshirish jarayoni pedagog va boshqa xodimlarning barcha faoliyatlariga tegishli bo‘lgan jarayon bo‘lib, ko‘zlangan natijalarga erishishda ma‘lum bir maqsadga yo‘naltirilgan faoliyatni rejalashtirish, tashkil etish, nazorat qilish, tahlil qilish va baholash, mazkur jarayon ishtirokchilariga ta‘sir ko‘rsatish orqali ularning faoliyatini muvofiqlashtirishni nazarda tutadi va bu o‘z navbatida boshqaruvni ifodalaydi. Shunday ekan, boshqaruv maqsadga yo‘naltirilgan ta‘sir, Ya‘ni sub‘ektning ob‘ektga ta‘siri natijasida ob‘ektning faoliyatini muvofiqlashtirilishini ifodalaydi.

Tadqiqotlar jarayonida aniqlanishicha, ko‘pchilik tadqiqotchilar tomonidan “boshqaruv” tushunchasi turlicha ta‘riflanadi, fikrimizning isboti sifatida quyidagi misollarni keltirishimiz mumkin.

Pedagog olim M.Mirqosimovning ta‘kidlashicha, boshqaruv taraqqiyotning har qanday bosqichida jamiyatga xos bo‘lgan ichki xususiyat bo‘lib, bu xususiyat umumiy xususiyatga ega bo‘lgani holda kishilarning ijtimoiy jamoachilik mehnatidan, turmush va mehnat jarayonida o‘zaro aloqada bo‘lish, o‘z moddiy va ma‘naviy faoliyatining mahsulotini almashtirish zaruriyatidan kelib chiqadi.[5.]

Xulosa qilib ta‘kidlash lozimki, MTT faoliyatini tashkil etish va takomillashtirishda direktorlarning boshqaruv faoliyati samaradorligi asosan ularning boshqaruv yo‘nalishidagi tushunchalari, bilimi, ko‘nikma va malakalari darajasiga hamda ularning shaxsiy xususiyatlari va kasbiy ahamiyatga ega bo‘lgan shaxsiy sifatlariga bog‘liq bo‘ladi.

1. Maktabgacha ta‘lim tashkiloti direktori boshqaruv faoliyati davomida o‘zi direktorlik qilayotgan ta‘lim muassasasining faoliyati, ta‘lim-tarbiya jarayonining holati, xodimlarning o‘z vazifasiga bo‘lgan munosabati, o‘zaro munosabatlar, ya‘ni tarbiyalanuvchi va tarbiyachilarning munosabatlari, shuningdek, umumiy maqsadga erishish uchun amalga oshirilayotgan ishlarning ko‘lami va samaradorligi, tarbiyalanuvchilarning qiziqishi, dunyoqarashining kengayib borishi hamda tashkil etilayotgan ta‘lim-tarbiya jarayonlarining sifati to‘g‘risida etarli ma‘lumotga ega bo‘lishi uchun zaruriy axborotlar to‘plashi lozim.
2. Boshqaruv MTT direktorlari va ta‘lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarining barcha faoliyatlariga tegishli bo‘lgan jarayon bo‘lib, MTT faoliyatini tashkil etishda, ko‘zlangan natijalarga erishishda ma‘lum bir maqsadga yo‘naltirilgan faoliyatni rejalashtirish, tashkil etish, nazorat

qilish, tahlil qilish va baholash, mazkur jarayon ishtirokchilariga ta'sir ko'rsatish orqali ularning faoliyatini muvofiqlashtirishni ifodalaydi.

3. Boshqaruv faoliyati algoritmi – bu maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktori boshqaruv faoliyatining ketma-ketligi (izchilligi) bo'lib, u yettita bosqich: pedagogik jarayonning holati to'g'risida ishonchli axborotlar to'plash, qayta ishlash va ob'ektiv baholash; boshqaruv faoliyati maqsadini belgilash; boshqaruv faoliyatini oldindan ko'rish (anglash) va rejalashtirish; kadrlar tanlash va joy-joyiga qo'yish; jamoa faoliyatini nazorat qilish va tashxis; jamoa a'zolarining faoliyatlarini muvofiqlashtirish; maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatining rivojlanish moyilligi va dinamikasini aniqlashdan iborat, mazkur bosqichlar izchilligida, boshqaruv metodlari: ma'muriy, ijtimoiy-psixologik, iqtisodiy, shuningdek, axborotlar to'plash metodlarini qo'llash yordamida boshqaruv funksiyalarining bajarilishi amalga oshiriladi.
4. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktorlari kadrlarning kasb mahoratini, umumiy ta'lim mahoratini, umumiy ta'lim va madaniy darajasini muntazam o'stirib borishga g'amxo'rlik qiladi; xodimlar malakasini hisobga olgan holda va maktabgacha ta'lim tashkiloti manfaatlaridan kelib chiqib, ularni tartibli va o'z vaqtida joydan-joyga ko'chirib turilishini ta'minlaydi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. - Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 24.09.2020-y., 03/20/637/1313-son.
2. O'zbekiston Respublikasining Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risidagi Qonuni, 16.12.2019 yildagi O'RQ-595-son. <https://lex.uz/docs/-4646908>.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 5-fevral kuni o'tkazilgan videoselektor majlisi. <https://www.gazeta.uz/uz/2024/02/05/education/>
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi PQ-4312-son "O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" qarori. – Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 10.05.2019-y., 07/19/4312/3106-son; 09.10.2020-y., 07/20/4857/1357-son
5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 22-dekabrda 802-sonli "Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning Davlat Standarti to'g'risida"gi qarori. - Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 23.12.2020-y., 09/20/802/1658-son.
6. Мирқосимов М. Мактабни бошқаришнинг назарий ва педагогик асослари. –Тошкент: Ўқитувчи, 1995. –159 б.
7. Мухитдинов Х.А., Собиров А.А. Бошқарув назарияси // Дарслик. – Т. 2012. – 240 б.
8. Salayeva M.S. Umumiy pedagogika. // Darslik. – Т. Nodirabegim nashriyoti. 2021. – 790 б.
9. Салаева Мухаббат Сабуровна.. Ўзбекистонда педагогика тарихини даврлаштириш муаммоси хусусида. Педагогик таълим. -Тошкент: 2007. № 5.-Б.5-8.